

ZANJABIL (ZINGIBER OFFICINALE) ILDIZPOYASI VA TEMIRTIKAN (TRIBULUS TERRESTRIS L.) YER USTKI QISMIDAN TAYYORLANGAN ADAPTOGEN DAMLAMANING JISMONIY CHIDAMLILIKKA TA'SIRINI O'RGANISH

Masharipova F. F.

Tulyaganov B. S.

Toshkent farmatsevtika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19230359>

Dolzarbli: Hozirgi kunda stress, jismoniy va ruhiy zo'riqish, immunitetning pasayishi bilan bog'liq holatlar keng tarqalmoqda. Sintetik stimulyatorlar ko'plab nojo'ya ta'sirlarga ega bo'lgani sababli, tabiiy kelib chiqishga ega adaptogen vositalar yaratish farmatsevtika sohasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zanjabil (*Zingiber officinale*) yallig'lanishga qarshi, antioksidant va tonik xususiyatlarga ega bo'lsa, temirtikan (*Tribulus terrestris*) organizmning umumiy chidamliligini oshiruvchi, immunomodulyator va energiya almashinuvini faollashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ushbu o'simliklar kombinatsiyasining adaptogen xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Rotarod testi yordamida adaptogen damlamaning stress sharoitida jismoniy chidamlilik, harakat koordinatsiyasi va mushak faoliyatiga ta'sirini baholash.

Tadqiqot obyekti va usullari: Zanjabil ildizpoyasi va temirtikan yer ustki qismining quritilgan kukuni asosida tayyorlangan suvli damlamalar, qiyoslash uchun eleuterokokk suvli damlamasi, Nazorat (suv berilgan), sinov (damlama berilgan) va qiyoslovchi (Eleuterokokk damlamasi berilgan) guruhlar uchun 6 tadan jami 18 ta laboratoriya sichqonlari.

Tadqiqot 2 kun davom etdi. Laboratoriya sichqonlari Rotarod qurilmasiga joylashtirildi. Qurilma aylanuvchi silindrdan iborat bo'lib, hayvonlar silindr ustida yurdi. Test davomida aylanish tezligi bir daqiqa ichida 5 rpm dan boshlab 25 rpm gacha bosqichma-bosqich oshirildi. Silindr ustidan maxsus konteynerga tushib ketganda sekundomer avtomatik qayd etdi

Natijalar: Rotarod testi 1-kunida "AdaptoFit" BFQ berilgan sinov guruhi sichqonlari aylanuvchi silindr ustida o'rtacha 184 sekund davomida yiqilmay turdi, bu nazorat guruhi o'rtacha 148 sekund va qiyoslovchi guruh o'rtacha 143 sekund natijalaridan ancha yuqoridir. Ayniqsa 1- va 2-raqamli hayvonlar 360 sekund bilan maksimal natija qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar "AdaptoFit" BFQning harakat koordinatsiyasi, muvozanat va mushak chidamliligini yaxshilashga ijobiy ta'sirini bildiradi. Qiyoslovchi guruh esa adaptogen ta'sirga ega bo'lsa-da, individual farqlar kuzatildi.

2-kun Rotarod testi natijalarida sinov guruhi sichqonlari deyarli barcha hollarda maksimal natijaga (900 sekund) erishdi, o'rtacha 873 sekund bilan, bu ularning jismoniy zo'riqishga yuqori moslashuvchanligini va markaziy nerv tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlashini ko'rsatadi. Nazorat guruhi o'rtacha 148 sekund bilan tabiiy moslashuvni saqladi, qiyoslovchi guruh esa o'rtacha 577 sekund bilan turlicha natijalarni ko'rsatdi. Umuman olganda, Rotarod testi "AdaptoFit" BFQning stressga chidamlilik va adaptogen xususiyatini aniq tasdiqlaydi, qiyoslovchi guruh esa o'rtacha moslashuvchanlikni namoyon etdi.

Xulosa: Damlama harakat koordinatsiyasi, muvozanat va mushak chidamliligini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatdi, markaziy nerv tizimini qo'llab-quvvatlash va jismoniy chidamlilikni oshirish xususiyatini tasdiqlaydi, preparat xavfsiz va samarali adaptogen sifatida

baholanishi mumkin. Qiyoslovchi guruhi natijalari turlicha bo'lib, adaptogenlik ta'sirini qisman namoyish etdi, nazorat guruhi esa o'rtacha va tabiiy moslashuvchanlikni ko'rsatdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sahoo, D., Parija, S.C. Ginger and its health claims: Therapeutic potential in sports nutrition. Curr Nutr Rep. 2021;10:235–246
2. Mashhadi, N.S., Ghiasvand, R., Askari, G., Hariri, M., Darvishi, L., Mofid, M.R. Anti-oxidative and anti-inflammatory effects of ginger in health and physical activity: Review of current evidence. Int J Prev Med. 2013;4(Suppl 1):S36-S42.
3. Chhatre, S.; Nesari, T.; Somani, G.; Kanchan, D.; Sathaye, S. Phytopharmacological overview of Tribulus terrestris. Pharmacogn. Rev. 2014, 8, 45–51.
4. Vogel HG. Drug Discovery and Evaluation: Pharmacological Assays. 3rd ed. Springer; 2008.